

**ISLOM OLAMIDAGI MASJIDLARNING ME'MORIY
TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI**

Abdug'aniyeva Shahloxon Mahmudjon qizi
Mustaqil izlanuvchi

ABSTRACT

This paper is devoted to the study of the architectural structure of mosques — Islamic religious buildings that are not only a place of prayer, but also an important cultural and social center of the Muslim community. The abstract examines the main elements of a traditional mosque, including a minaret, dome, mihrab, minbar, and courtyard. The features of the layout, the symbolic meaning of architectural components, and the influence of geographical location and historical period on the formation of architectural style are analyzed. Special attention is paid to the differences between mosques in different regions of the Islamic world, such as the Middle East, North Africa, Turkey, and Southeast Asia. The work allows for a deeper understanding of both the religious and cultural significance of mosque architecture.

Keywords: muqarnas, dome, mihrab, mezzanine, minbar, arch.

АННОТАЦИЯ

Данная работа посвящена исследованию архитектурной структуры мечетей — исламских культовых сооружений, являющихся не только местом молитвы, но и важным культурным и общественным центром мусульманской общины. В аннотации рассматриваются основные элементы традиционной мечети, включая минарет, купол, михраб, минбар и внутренний двор. Анализируются особенности планировки, символическое значение архитектурных компонентов и влияние географического положения и исторического периода на формирование архитектурного стиля. Отдельное внимание уделено различиям между мечетями разных регионов исламского мира, таких как Ближний Восток, Северная Африка, Турция и Юго-Восточная Азия. Работа позволяет глубже понять как религиозное, так и культурное значение архитектуры мечетей.

Ключевые слова: мукарнас, купол, михраб, мезана, минбар, арка.

ANNOTATSIYA

Ushbu ish masjidlarning me'moriy tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ular nafaqat namozgoh, balki musulmon jamoasining muhim madaniy-ijtimoiy markazi bo'lgan islam diniy binolaridir. Referatda an'anaviy masjidning asosiy elementlari, jumladan, minora, gumbaz, mehrob, minbar va hovli haqida so'z boradi. Joylashtirish xususiyatlari, me'moriy komponentlarning ramziy ma'nosi va geografik joylashuvi va tarixiy davrning me'moriy uslubning shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Turkiya va Janubi-Sharqiy Osiyo kabi islam

olamining turli mintaqalaridagi masjidlar o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Asar masjid me'morchiligining ham diniy, ham madaniy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: muqarnas, gumbaz, mehrob, oraliq, minbar, ark.

KIRISH: E'tiqod haqida so'z borganida, eng avvalo, ibodat qilinadigan joy – ibodatxonalar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ibodatxona muayyan bir dindagi kishilarning Xudoga sig'inadigan, ibodat qiladigan, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkazadigan bino yoki inshootlar majmuasidir. Ibodatxonaning qurilish uslubi, me'moriy bezagi diniy e'tiqod mazmunini ifodalaydi. Misol uchun, Qadimgi Misr, Ossuriya, Bobilda ibodatxonalar ilk jamoat binolari hisoblangan va ular o'ta hashamdar ishlanib, haykaltaroshlik, rassomlik namunalari bilan bezatilgan. Shuningdek, buddaviylik va nasroniylik ibodatxonalarida ham tasviriyl san'at asarlaridan unumli foydalanilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Andijon viloyatiga bo'lgan tashrifî jarayonida, davlat rahbari Andijon viloyati Bosh jome' masjidini borib ko'rdi. "Bu dargohni barpo etishga hissa qo'shgan muhandislar, quruvchi va bezakchilar, homiylargâ minnatdorchilik bildiraman. Masjid Andijon xalqiga muborak bo'lsin, uzoq yillar xalqimizga xizmat qilsin," - dedi Shavkat Mirziyoev . Ulamo va imom-xatiblar bilan muloqot paytida davlat rahbari: "Hamma joylarda muqaddas ziyoratgohlarni obod qilish, yangi masjid va ma'rifat markazlari qurishga e'tibor qaratyapmiz. Bunday xayrlı ishlarni davom ettiramiz. Mo'min-musulmonlar bu yerga kelib, ibodatlarni emin-erkin bajarib, shukronalik bilan xalqimizni duolar qilsa, nur ustiga nur," – deb ta'kidladi. Bundan masjidlarga bo'lgan ehtiyoj va ularning qurilishi dolzarb va aholining hayotidagi o'rni beqiyos ekanligini davlat rahbarining o'zi ham ta'kidlab turibdi.

VII asr boshida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan yangi e'tiqod bunday yondashuvni keskin o'zgartirib yubordi. Islom dini o'ziga xos musulmon ibodatxonalari – masjidlar tipologiyasini vujudga keltirdi. Lekin, boshqa dinlardan farqli o'laroq, islom ta'limoti qarashlaridan kelib chiqib, masjidlar haykaltaroshlik va rassomlik ishlari bilan bezatilmadi. Buning o'ziga xos asosli sabablari bor, albatta. Avvaliga oddiy to'g'ri to'rtburchak mehrobli xona shaklida qurilgan masjidlar vaqt o'tib, Islom e'tiqodi yetib borgan mintaqalarda mahalliy qurilish uslublari, an'analar va qurilish materiallari asosida sayqal topdi, yangicha shaklga ega bo'ldi. Garchi, masjidlarning shakl-shamoyili o'zgarsada, mohiyati o'sha-o'sha. Ular ma'lum bir xalq, mamlakatning me'morchilik mahorati, iqtisodiy salohiyati, badiiy estetik tushunchalari, qolaversa, ma'naviy-g'oyaviy qarashlari ramziga aylangan.

Markaziy Osiyo mintaqasiga islom dini kirib kelgach, mahalliy an'analar islomiy madaniyat bilan uyg'unlashib, yuksalish pallasiga kirdi. Ilm-fan, savdo-sotiq,

qurilishi va qishloq ho'jaligi misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Ilk islom davridagi mavjud siyosiy va iqtisodiy muhit bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Islom arxitekturasini bezashda dastlab konstruktiv maqsadga ega bo'lган ко'п sonli elementlar sof bezak vositalariga aylantirilib, keng bezak sxemalariga kiritilgan. Ba'zida shakllarning ma'lum kombinatsiyalari dekorativ yoki strukturaviy yoki ikkalasi ham bo'lishi kerakligi haqida qiziq noaniqlik saqlanib qoladi.

Islom me'morhiligini bezashda ishlatiladigan eng keng tarqalgan me'moriy element - bu muqarnas: stalaktit yoki chuqurchalar konstruktsiyasi. Asosan, u bir-birining ustiga o'ralgan qatorlar bo'lib joylashtirilgan, har biri omborning bir qismi bo'lган birliklardan iborat. Muqarnas (arab.) – me'moriy bezak turi; ravoqli kosachalarning (uyachalarning) ustma-ust joylashishidan hosil bo'ladigan murakkab shakl. Me'morlikda asosi 4/6/8 burchak bo'lган mehrob, taxmon, tokcha va boshqalarning tepe qismini gumbaz, yarim gumbaz ko'rinishiga keltirishda, binolar devori bilan shifti oralig'i, ustunlar boshasi va boshqalarni bezatishda keng qo'llaniladi. Dastlab sodda shaklga ega bo'lган, keyinroq murakkab ko'rinishga kirgan hamda bezak maqsadlarida ishlatila boshlangan. Muqarnas ishlanadigan joyiga qarab har xil murakkablikda bo'ladi. Egri sirtga ega bo'lган ravoqchalarning uchlari oldinga chiqarilib, yuqori qator uchun tayanch hosil qilinadi. Tarixda bu ravoqchalar ko'pincha teng tomonli uchburchakni beradi, ikki va undan ortiq ravoqchalar turli burchaklar ostida o'zaro birikib kosachalar hosil qiladi. Muqarnas birliklari yog'ochdan, toshdan yoki shlakdan yasalgan bo'lishi mumkin. Muqarnaslar yuzalarni artikulyatsiya qilish va shakllarning mustahkamligini dematerializatsiya qilishga moyil bo'lган uch o'lchovli bezak effektlarini yaratishning moslashuvchan usulini ta'minladi. Bundan tashqari, u har qanday ehtiyojga, keng bo'shliqlar, kirishlar yoki gumbazlardan tortib, qurilish yoki bezakning eng kichik detallarigacha kengaytirilishi mumkin. XV-XVI asrlarga oid ba'zi muqarnas namunalari ularning dastlabki tuzilish ahamiyatini ko'rsatadi, biroq tez orada ularning yuzalarning kesishish burchaklaridagi dekorativ funksiyasi ustunlik qiladi.

Mehrob (arab. – harb joyi, janggoh; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) — masjidning Makka (Ka'ba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdah. yarim aylana, ko'p qirrali, to'g'ri to'rburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo'ladi. Ayrim masjidlar yog'och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravokdi hoshiyalar bilan bezatilgan. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan mavjud. Namoz vaqtida imom mehrobga o'tib, qibлага yuzlanadi va uning orqasidan jamoa bo'lib namoz o'qiladi.

Minora (arab. – mayoq) – gorizontal (eni) o'lchamiga nisbatan vertikal (tik) o'lchami ortiq bo'lган baland inshoot. Minoralar aylana, ko'p qirrali yoki to'rburchak shaklida barpo qilinib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Dengiz

sohillarida kemalarning adashmay portga kelishiga xizmat qiladigan (mayoq), televideenie va boshqa maqsadlarga xizmat qiladigan minoralar ham bor. Inshootning yuqorisiga chiqish uchun uning ichida aylanma zina bo'ladi. Qadimdan minoralar masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qurilgan. Muazzin minoralarga chiqib azon aytib, namozxonlarni namozga chorlagan.

Dastlabki minora ummaviylar xalfasi Muaviyaning buyrug'iga binoan 673 yil Misrda qurilgan. Ba'zi minoralar shaharga, ma'lum bir ansamblga ko'rk va salobat berish hamda uni qurdirgan shoxning kuch-qudratini namoyish qilish uchun ham bunyod etilgan. O'zbekiston hududidagi qad. minoralarning tuzilishi o'ziga xos milliy me'morlik an'analari asosida qurilgan. G'ishtni mavj uslubida terib, yozuvlarni qo'llash orqali badiiy ifodaviylikka erishilgan. minoralarga joziba baxsh etilgan. Qadimiylar me'morlik an'analari tayangan mahalliy me'morlik mакtablarining rivojlanishi bilan minoralar bezagida rangli sopol koshinlar qo'llangan. Xivadagi Kalta minor, Polvon qori, Sayd Sholikorboy, Shayx Qalandar bobo minoralari, Islomxo'ja madrasasi va minorasi.

Gumbaz – suyri fazoviy hajmdagi tom. Tarhi aylana, chorsi, to'g'ri to'rtburchaqli, muntazam ko'pburchaqli bo'ladi. Shuningdek, ko'pburchaqli xona va katta inshootlar devorlari ustida, ba'zan ustunlarni birlashtirgan doirasimon qurilma poygumbaz ustida davra ko'rinishida xom g'isht, pishiq g'isht, tosh, beton va boshqa materiallardan sirti silliq, qirrali, qovurg'ali piltavor ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Mezana (arab.) – minoraning yuqori qismi, Muazzin azon aytadigan joy. Biror bino (peshtoq, darvozaxona) ustiga qurilishi mumkin. Mezana aylana shaklida va ko'p qirrali bo'ladi. Ko'pincha, ravoqsimon darchalar qatoridan iborat. Ichki devorlari ganch bilan naqshlanadi, tashqarisi minoraning umumiylar bezagiga mos holda sirkor parchinlar bilan bezatiladi. Mezananing tepasi gumbazcha (qubba) bilan yopiladi, ba'zan ochiq bo'lishi ham mumkin. Ayrim hollarda guldasta ham mezana vazifasini o'tagan.

Masjid shunchaki ibodat maskani emas, balki yurtning me'morchilik an'analari va yutuqlarini aks ettirgan bebahohida sifatida sayyoohlarni jalb etuvchi ziyorat ob'ektiga aylanishi lozim. Misol uchun, yevropalik yoki amerikalik sayyoohlar Yaqin Sharq, arab me'morchiligi obidalarini ko'rish uchun arab mamlakatlariga boradi. Ular O'zbekistonga kelsa-chi? Markaziy Osiyo me'morchiligi an'analari o'rniga arab me'morchiligiga taqlidan qurilgan inshootlarni ko'rib hayron bo'lmaydimi?!

Yangi masjidlar loyihalarini ishlab chiqishda ushbu soha mutaxassislarini milliy me'morchiligidan tarixi bo'yicha olim, san'atshunos va arxitektchlarni jalb qilib, ilmiy kengashlar tuzish va ular yordamida kontseptsiyalar shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu yo'l bilangina Yaqin Sharq, arab va boshqa xalqlar me'morchiligidan taqlidga, ulardan nusxa ko'chirilgan bir-biriga o'xshash konveyr va inkubatsion loyihalarga barham berish, mumkin deb o'ylaymiz. O'zbek me'morchilik maktabini mahalliy, milliy estetik mezonlarimiz, uslublarimiz asosida yana ham

yuqori darajaga olib chiqishimiz va bu bilan ziyyarat sayyoohligi uchun ham zamin yaratishimiz maqsadga muvofiq, deb o'ylayman. Yurtimizda ziyyarat turizmini yanada jonlantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Faqat bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanilmayapti. Ziyyarat turizmi faqat o'tmishdagi allomalar, tarixiy shaxslar, aziz avliyolar dafn etilgan go'zal maqbaralarini ziyyarat etishdan iborat emas. Shuningdek, qadimgi masjid-madrasalar, maqbaralar va boshqa diqqatga sazovor qadamjolar bilan birga zamonaviy masjidlar ham sayyoohlar uchun qiziqarli ob'ektga aylanib, mamlakatimizning turistik brendi sifatida tanilishi kerak. Bu esa zamonaviy masjidlar qurilishi kontseptsiyasi borasida ko'p izlanish va ishlashni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. M, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-60-son, 28.01.2022, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Shavkat Mirziyoev hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Andijon viloyatida so'zlagan nutqi. <https://masjid.uz/imomlar-ijodidan/297-yangiliklar/xabarlar/2641-masjid-bush.html>.
3. Sultonov O'. Toshkent masjidlari tapixi. – T.: «Yangi asr avlod», 2010. – 153 b.
4. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. – Toshkent. “Sharq”. 2005 – 384 b.
5. Ali-zade A. A. Masjid // Islamskiy entsiklopedicheskiy slovarъ. —M.: Ansar, 2007. — 504 s.
6. Gogiberidze G. M. Islamskiy tolkoviy slovarъ. — Rostov n/D.: Feniks, 2009. — 266 s.
7. Zasypkin V. N. Arxitektura Sredney Azii. — M.: Izd-vo Akademii arxitektury, 1948. — 158 s.
8. Pugachenkova G. A. Zodchestvo Sentralnoy Azii. XV vek. — Tashkent: Izd. im. Gafura Gulyama, 1976. —115 s.
9. Sokolov S. V. Kazanъ. Portret v stile impressionizma. — Kazanъ: Otechestvo, 2011. — 257 s.
10. Surdel D. Surdel J. Sivilizatsiya klassicheskogo islama. – Yekaterinburg, 2006. – 387 s.
11. Munt H. “The Holy City of Medina: Sacred Space in Early Islamic Arabia”. — Cambridge University Press, 2015
12. Izziah Hasan. “Architecture and the Politics of Identity in Indonesia. A Study of the Cultural History of Aceh” (angl.). — Adelaida, 2009. — P. 137-139. — 347 p